



O'zbekiston Ipotekani Qayta
Moliyalashtirish Kompaniyasi

O'zIQMK faoliyatining 2024-yil 3-chorak natijalari

Oktabr 2024




Keltirilgan atamalar

Umumiy tushunchalar		Kompaniyaning hamkor banklari	
Kompaniya	- O'zIQMK	IPTB	- «Ipoteka-bank» ATIB
OTB	- Osiyo Taraqqiyot Banki	SQBN	- «O'zsanoatqurilishbank» ATB
IMT	- Ishtirokchi moliyaviy tashkilot, Kompaniyaning hamkor banki	HMKB	- «Hamkorbank» ATB
DTI	- Qarz yuki	ASBU	- «Asakabank» AJ
LTV	- Kredit miqdorining uy-joy narxiga nisbati	TURO	- «Turonbank» ATB
NPL	- Muammoli kredit	BRB	- «Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
IMV	- O'zbekiston Iqtisodiyot va Moliya vazirligi	AGRO	- «Agrobank» ATB
MB	- O'zbekiston Markaziy Banki	NBUZ	- «O'zmilliybank» AJ
FBOOKF	- Fuqarolarning Banklardagi Omonatlarini Kafolatlash Fondi	XALQ	- «Xalq Banki» AT
		OFB	- «Orient Finans» XATB
		InFinbank	- «Invest Finance Bank» AJ




Kompaniyaning resurs manbasi va qayta moliyalashtirilgan portfeli

Kompaniya resurs manbasi jalb qilish dinamikasi



Qayta moliyalashtirilgan portfel, IMTlar kesimida




2024-yil 3-chorakda Kompaniyaning resurs manbasi 4 060 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qayta moliyalashtirilgan portfel 2024-yil 2-chorakka nisbatan 7,4% oshdi va 4 126 mlrd.ni tashkil etdi.




Kompaniya shartlari asosida ajratilgan kreditlarning ipoteka bozorida o'ri

Ajratilgan ipoteka kreditlari yillar kesimida, mlrd. so'm



Kompaniya mezonlari bo'yicha ajratilgan ipoteka kreditlarining jami ipoteka portfelidagi ulushi




2024-yil 3-chorak davomida aholiga jami 11 727 mlrd. so'm ipoteka kreditlari ajratilgan. Shundan, 10,7%, ya'ni 1 252 mlrd. so'm Kompaniya qayta moliyalashtirgan kreditlardir.

2024-yil 3-chorak yakuniga ko'ra O'ziQMK tomonidan qayta moliyalashtirilgan ipoteka kreditlarining umumiy ipoteka kreditlaridagi ulushi 6,9%ni tashkil etdi.



Portfel dinamikasi va qamrovi




Chorak oxiriga qayta moliyalashtirilgan kreditlar soni 20 824 taga (4 126 mlrd. so'mga) yetdi.

Ipoteka kreditlari qoldig'ining 94,8%i Kompaniya IMTlari tomonidan ajratildi.



Muvofiq ipotekalarning taqsimlanishi




Qayta moliyalashtirilgan kreditlarning hududlar kesimida eng yuqori taqsimlanishi Toshkent, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.




Kreditlash faoliyatining natijalari

Qarz oluvchilar soni gender va ajratilgan qiymat (mlrd. so'm), ichki doira - 2024y. 2-ch., tashqi doira - 2024y. 3-ch.




Ipoteka kreditlar gender va maqsadi kesimida, mlrd. so'm




2024-yil 3-chorakda qayta moliyalashtirilgan kreditlarning 35,4%ni ayollar va 64,6%ni erkaklar tashkil qildi.

2024-yil 3-choragida ta'mirlash uchun ajratilgan kreditlar tarkibida ayollarning ulushi eng yuqori 68,6%ni tashkil etdi va o'tgan chorakka qaraganda 5,9% kamaygan.

Yosh kesimida



Gender kesimida






Bozorga asoslangan ipoteka kreditlari (2024-oktabr)

Mezonlar	SQBN	Ziraat			Saderat	InFinBank	Tengebank	XALQ	Ipak Yo'li Bank	IPTB	AGRO	HMKB	
Qarz oluvchining yoshi	18 ≤ 60	21 ≤ 60			18 ≤ 60	18+	21 ≤ 60	18 ≤ 60	18 ≤ 60	21 ≤ 60	18+	18 ≤ 60	
Bozor	Birlamchi va ikkilamchi	Birlamchi va ikkilamchi			Birlamchi va ikkilamchi	Birlamchi va ikkilamchi	Birlamchi va ikkilamchi	Birlamchi va ikkilamchi	Birlamchi va ikkilamchi	Birlamchi va ikkilamchi	Birlamchi va ikkilamchi	Birlamchi va ikkilamchi	
Maqsad	Uy-joy sotib olish												
DTI, %	≤ 70	≤ 60			≤ 70	≤ 50	≤ 70	≤ 70	≤ 70	≤ 50	≤ 50	≤ 70	
LTV, %	≤ 80	≤ 75			≤ 70	≤ 74	≤ 50	≤ 65	≤ 75	≤ 74	≤ 75	≤ 74	
Kredit muddati, yil	≤ 15	≤ 5	5-7	7-10	≤ 7	≤ 15	≤ 15	≤ 20	≤ 7	≤ 20	≤ 10	≤ 10	
Foiz yillik, %	22	28	25,5	26	28	24	27,9-28,9	23,9-24,9	21,5-25,0	24-30	24-25,9	25,0-26,5	27
Imtiyozli davr, oy	Mavjud emas	Mavjud emas			Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas	6	Mavjud emas	12	24	Mavjud emas	
Maksimal miqdori, mln. so'm	≤ 1 500	≤ 1 853			≤ 900	≤ 1 012	≤ 820	≤ 800	≤ 2 000	≤ 1 700	≤ 850	≤ 600	
To'lov usuli	Differentsial/Annuitet	Differentsial/Annuitet			Differentsial/Annuitet	Differentsial/Annuitet	Differentsial/Annuitet	Differentsial/Annuitet	Differentsial	Differentsial	Differentsial/Annuitet	Differentsial/Annuitet	



Bozor shartlari asosidagi ipoteka kreditlari foiz stavkalari va muddatlari




Bozorda tijoriy shartlar asosida ajratilayotgan ipoteka kreditlari 5-20 yil muddatli bo'lib, foiz stavkasi yiliga 21,5%-30% tashkil etmoqda.

Manba: <https://bankxizmatlari.uz/uz/loans/ipoteka/> (faqat ma'lumot uchun).



Uy-joy bozori va turi bo'yicha sotib olingan mulklarning hududiy taqsimlashi




Qayta moliyalashtirilgan portfel 19 263 ta ipoteka kreditidan iborat bo'lib, ulardan kvartira sotib olish uchun 14 478 ta (75,2%) va hovli sotib olish uchun esa 4 785 (24,8%)ni tashkil etdi. Ushbu kvartira xaridlarining katta qismi (65,6%) Toshkent, Navoiy va Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.

Xaridlarda hovlining ulushi boshqa hududlarga nisbatan Andijon (11,6%), Toshkent viloyati (11,2%), Xorazm (14,1%), Qoraqalpog'iston R. (14,8%)da yuqori bo'lgan.




Qarz oluvchilarning ko'rsatkichlari

Qayta moliyalashtirilgan kreditlar daromad guruhi bo'yicha



Qayta moliyalashtirilgan portfelning qarz yuki bo'yicha



Daromadi 10-15 million so'm bo'lgan qarz oluvchilar ulushi 2021 yilga nisbatan 22,3%ga oshgan va 5 million so'mgacha bo'lgan qarz oluvchilar ulushi 7,4%ga kamaygan. Bunga sabab, qarz oluvchilarning o'rtacha oylik maoshi oshib borayotganidan izohlash mumkin.

Qarz oluvchilarning 69,2% ulushi oylik sof daromadlarining 45% dan kamini va 30,8% esa oylik sof daromadlarining 50%gachani ipoteka kreditlariga sarflaydi.